

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



O'QUV-TANISHUV AMALIYOTI
DASTURI
(72 soat)
(2 kurs)

Bilim sohasi: 100 000- Gumanitar soha
Ta'lif sohasi: 110 000 - Pedagogika

Ta'lif yo'naliishi: 60111800 - Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)
(Kunduzgi va kechki ta'lif talabalari uchun)

TOSHKENT - 2023

Amaliyot dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil «25» avgustdagи 744-sonli buyrug'i bilan kelishilgan o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Fan dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashining 2023 yil «28» avgustdagи «1» - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

- M. Gulyamova O'zDJTU, Ingliz tili integrallashgan kursi № 1 kafedrasi mudiri, PhD., dotsent
- N. Muxammedova O'zDJTU, Ingliz tili integrallashgan kursi № 2 kafedrasi mudiri, PhD., dotsent
- P. Omonov O'zDJTU, Ingliz tili integrallashgan kursi № 3 kafedrasi mudiri, PhD., dotsent


Taqrizchilar:

- K. Muradkasimova Ingliz tilini o'qitish metodikasi № 1 kafedrasi v.v.b. dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DcS)
- Sh. Akbarova Xalqaro islom akademiyasi, chet tillar fakulteti v.v.b. dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)


O'zDJTU Ingliz tili №1 fakulteti dekani:

2023 yil «___»  A. Yuldashev

O'zDJTU Ingliz tili №2 fakulteti dekani:

2023 yil «___»  B. Kulmatov

O'zDJTU Ingliz tili №3 fakulteti dekani:

2023 yil «___»  T. Ismailov

KIRISH

Nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash oliv ta'lim samaradorligini oshirishning halkaro tajribada sinalgan usullaridan biridir. Amaliyotning har qanday turi malakali mutaxassislar tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur dasturda o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili) yo'nali shida kunduzgi va kechki bo'limlarda tahsil olayotgan ikkinchi bosqich talabalari uchun rejalashtirilgan o'quv-tanishuv amaliyotini o'tkazish tartibi yoritilgan.

O'quv-tanishuv amaliyotining maqsadi va vazifalari

O'quv-tanishuv amaliyotining maqsadi quyidagilardan iborat:

- Talabalarning xorijiy tillar bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini (til o'rghanishning 4 kompetensiyasi) kundalik va kasbiy faoliyatda samarali qo'llashga o'rgatish;
- Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olgan bilimlarini rivojlantirish, mustaxkamlash va ko'nikmalarini shakllantirish;
- Ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga taalluqli me'yoriy xujjatlar bilan tanishish:
 - DTS
 - O'quv dasturi
 - Dars rejasি
 - Kalender-tematik reja
 - Foydalani layotgan adabiyotlar
 - Baholash tizimi
- Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish usullari bilan tanishish, chet tilini o'qitish metodlarni o'zlashtirish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- Kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan dastlabki amaliy ko'nikmalarini egallash.

Amaliyotning vazifalari

- Talabalarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish (tashkiliy, kommunikativ, izlanuvchanlik, konstruktiv loyihalash, rivojlantiruvchi);
- O'qituvchi shahsiyatiga xos bo'lgan professional xususiyatlarni rivojlantirish;

- Pedagogik faoliyatda o‘z ustida tinimsiz ishlashning zaruriyatlarini o‘qtirish hamda kelajakdagи kasbiga nisbatan qiziqishini orttirish;
- Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan oлган bilimlarini mustaxkamlash va pedagogik muammolarni hal etishda ulardan foydalanishga o‘rgatish;
- Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish;
- Ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiyaviy faoliyatining hozirgi holati bilan yaqindan tanishtirish;

Amaliyot muddati va o‘tkazilish ob’ektlari

O‘quv jarayoni jadvaliga ko‘ra 60111800 - Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishida tahsil olayotgan ikkinchi bosqich talabalari uchun o‘tkaziladigan o‘quv-tanishuv amaliyoti 4 haftani (72 soat) tashkil etadi. Joriy o‘quv yilida amaliyot 2024 yil 26 fevraldan 23-martga qadar davom etadi. Universitet axborot-resurs markazi, mutaxassislik kafedralari va tegishli umumta’lim maktablari amaliyot ob’ekti hisoblanadi. Amaliyot davomida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- Tegishli umumta’lim maktab muassasalarida olib boriladigan dars kuzatuvlari uchun ko‘rsatmalar berish;
- Universitetning mutaxassislik kafedralari professor-o‘qituvchilari tomonidan amaliyot uchun muhim bo‘lgan o‘quv dasturlar va materiallar bilan tanishtirish;
- Tegishli umumta’lim maktab muassasalarida - dars kuzatuvlari olib borish;
- Portfolio uchun xujjatlarni yig‘ib olish, bilim, ko‘nikma va ta’surotlarni muhokama qilish.

Amaliyot davrida amalga oshiriladigan ishlarning taqsimoti

Sana	Bajariladigan ishlar	Soat	Izoh
Birinchi hafta			
26.02.2024	Amaliyot o‘tish tartibi, ob’ektlari to‘g‘risida ko‘rsatmalar berish.	8 soat	Dars jadvali va amaliyot o‘qituvchisi
02.03.2024	Amaliyotga kerakli bo‘lgan xujjatlar bilan talabalarni tanishtirish.		

	Ta'limni tashkil etishda yuritiladigan me'yoriy hujjatlar bilan tanishish (DTS, o'quv dasturlari, CEFRga asosan A1, A2 va B1 darajaga qo'yilgan talablar). Dars kuzatuvi uchun kuzatish jadvalini tanlash, kuzatuvga tayyorgarlik ko'rish. Dars kuzatuvini to'g'ri tashkil etish – seminar treyning		
26.02.2024 02.03.2024	Biriktirilgan maktabda dars jarayoni bilan tanishish. Kuzatuv darslari rejasini tuzish va darslarni kuzatish	10 soat	Umumta'lim maktabi o'qituvchilar va amaliyot oqituvchilar
Ikkinchchi hafta			
04.03.2024 09.03.2024	Amaliyot o'tash ob'ektlarida qo'llaniladigan adabiyotlar va resurslar bilan tanishish va ularning tahlil qilish. (1,2,3-sinflar)	8 soat	Dars jadvali va amaliyot o'qituvchisi
04.03.2024 09.03.2024	Tegishli umumta'lim maktab muassasalariga tashrif, dars kuzatuvi va dars kuzatuvi asosida qaydlarni to'ldirish;	10 soat	Shartnoma asosidagi maktablar
Uchinchi hafta			
11.03.2024 16.03.2024	Amaliyot o'tash ob'ektlarida qo'llaniladigan boshlang'ich sinf uchun mo'ljallangan adabiyotlar va resurslar bilan tanishish va ularning tahlili (4,5-sinflar)	8 soat	Dars jadvali va amaliyot o'qituvchisi
11.03.2024 16.03.2024	Dars kuzatuvi va dars kuzatuvi asosida qaydlarni to'ldirish	10 soat	Shartnoma asosidagi maktablar
To'rtinchchi hafta			
18.03.2024	Amaliyot o'tash ob'ektlarida	8 soat	"Guess what"

23.03.2024	qo'llaniladigan boshlang'ich sinf uchun mo'ljalangan adabiyotlar va resurslar bilan tanishish va ularning tahlili. Dars kuzatuvlari muhokamasi, Portfolio to'ldirish		darsligi, 1,2,3,4,5. DUET Session: 26 va 29 Observation for Developmental Purposes
18.03.2024 23.03.2024	Dars kuzatuvi bo'yicha tahlil Dars kuzatuvi – seminar treyning	10 soat	Dars jadvali va amaliyot o'qituvchisi
Jami		72 soat	

Amaliyot bo'yicha talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash va nazorat qilish me'zonlari

Talabalar bilimini baholash O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 9 avgustdagagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizomi»ga ko'ra 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

Talabalarning amaliyoti 1-4 xafka davomida baholab boriladi. Talabalar amaliyot davrida kuzatgan darslari asosida hisobot tayyorlaydilar. Barcha xujjatlar amaliyot rahbari tomonidan qabul qilinadi va baholanadi. Yakuniy nazorat talabalarning 1-4 haftalar davomida seminar treyninglarida ishtiroki va dars kuzatmalari va hisobot natijalari asosida baholanadi. Amaliyotni muvaffaqiyatli o'tagan talabalarga 4 kredit beriladi.

Baholash mezoni

- 1. Dars kuzatuv hisobotlari (Observation log, Filled observation forms, Report on observations)
- 2. Pedagogik amaliyot kundaligi (Pedagogical diary)
- 3. Mahorat darsi (Microteaching materials+Feedback)
- 4. Reflektiv yozuv (Reflective writing)

Dars kuzatuv hisobotlari (Observation report)

Ushbu vazifani bajarish uchun talabalardan amaliyot davomida 36 ta darsni kuzatish va hisobotlar yozish talab etiladi. Buning uchun talaba quydagilarni bajarish lozim:

- talaba biriktirilgan mentor-o'qituvchini darsini kuzatish;
- kuzatuv shaklini (Observation Form) portfolioga to'ldirib joylash;
- kuzatilgan darslarning 18 tasi asosida 250 so'zdan kam bo'limgan hisobot yozish.

Pedagogik amaliyot kundaligi (Pedagogical diary)

Ushbu vazifani bajarish uchun talabalar amaliyot davomida pedagogik amaliyoti kundaligini tutadilar. Buning uchun talaba dars kuzatuvi davomida dars jarayonini tasvirlashi lozim. Bunga sinf xona jihozlarining joylashgan tartibi, o'quvchilar soni, sinfda texnik jihozlarning mavjudligi, ko'rgazmali materiallarning mavjudligi, o'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi, ularning his tuyg'ulari, motivatsiyasi, kayfiyati, o'qituvchining darsga tayyorgarlik darajasi, o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan munosabati va muomalasi kabi tasvirlar kiradi. Talaba kundalikni 15 ta dars asosida yozishi lozim (36 ta kuzatilgan darslardan 15 ta dars tanlanishi mumkin).

Mahorat darsi (Microteaching materials+Feedback)

Ushbu vazifani bajarish uchun talaba o'z guruhdoshlariga mahorat darsi o'tishi lozim. Mahorat darsini tashkil qilishda talaba o'ziga guruhdoshlari orasidan kuzatuvchi tayinlashi kerak va unga kuzatuv shaklini (observation form) berishi lozim. Kuzatuvchining maqsadi mahorat darsini kuzatish jarayonida kuzatuv shaklini to'ldirish va shu asosida dars tahlilini (Feedback) yozib berishi lozim. Mahorat darsi 10-15 minutlik bo'lib, materiallар 1 sinfdan 5 sinfgacha bo'lgan ingliz tili darsliklari mavzusi asosida rejalashtiriladi va talabaning kreativ yondashuv asosida o'tkaziladi. Buning uchun talaba mavzuni til darajasini hisobga olgan holda materiallarni mavzu doirasida o'zgartirishlar kiritishi mumkin, tarqatma materiallar, interaktiv o'yin shaklidagi mashqlarni ham kiritishi, yaratishi mumkin.

Reflektiv yozuv (Reflective writing)

Ushbu vazifani bajarish uchun talaba passiv amaliyot davrida olib borgan kuzatuvlari va orttirgan tajribasiga asoslangan holda reflektiv yozuvda bayon etadi. Reflektiv yozuv 1000 ta so‘zdan oshmagan yoki A4 formatdagi ikki varoqni tashkil qilish kerak. Reflektiv yozuvda quyidagilar bayon etilishi kerak:

- darsdan oldingi ilk kechinmalar;
- darsning yutuqlari va kamchiliklari;
- passiv amaliyot davrida o‘rgangan bilim va ko‘nikmalari;
- passiv amaliyot davrida duch kelgan qiyinchiliklari.

O’quv – uslubiy adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonun. Toshkent, O’zbekiston, 2020 y.
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida» gi Qarori. Toshkent, O’zbekiston, 2013 y.
3. Development for Uzbekistan English Teachers (DUET) 1/2 British Council, Uzbekistan, 2009
4. Chiesa David L., Azizov U., Khan S., Nazmutdinova K., Tangirova K. Reconceptualizing Language Teaching: An In – Service Teacher Education Course in Uzbekistan. Baktria press. T:-2019
5. Alimova K, Mukhammedova N, Brewerton B. Becoming a teacher. Trainer’s book. T: -2016